

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoira Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Kaxarov Jasur Abulqosimovich</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Rahmonov Shuxrat Shavkatovich</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНинг НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY- AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Shonazarov Jamshid Shuxratovich</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFI FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

- Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306
- Узакова Гўзал Шариповна*
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325
- Пулатова Нодирахон Собиржоновна*
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332
- Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341
- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345
- Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*
TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356
- Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368
- Утанов Фурқат*
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
МАҚОМИ 369-374
- Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH
TENDENSIYASI 375-381
- Назарова Марҳабо*
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ 382-386
- Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ
МАСАЛАЛАРИ 387-400
- Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406
- Abdikhakimov Islombek*
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK
YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

EPIC CLICHES AND THEIR INTERPRETATION IN ENGLISH AND GERMAN LANGUAGES (EXAMPLE OF THE EPIC “ALPOMISH”)

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies (DSc)

askarovashakhnoza2@mail.com

Abstract. This article deals with the epic clichés found in the epic “Alpomish” and their translations into English and German languages. Information is given on the problems of translating the epic into a foreign language, their solutions, and the methods used by the translators. When translating the original stylistic formulas into English and German, the translator did not transfer the converted form to other places exactly as in the original, but translated them using different linguistic tools. Because the uniformity of the original is natural for the folklore environment to which it belongs, and the repetitions in it are almost unknown to the reader of the original. However, in a different language style and artistic form, this situation can be confusing. That is, it creates situations of tautology.

Key words: Epos, translation, stylistic formula, cliché, artistic image, poetic image, originality.

EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI (“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA)

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Alpomish” dostonida uchraydigan epik klishe lar va ularning ingliz, nemis tillariga tarjimalari xususida so'z yuritiladi. Dostonni xorijiy tilga tarjima qilishdagi muammolar, ularning yechimlari va unda tarjimonlarning tutgan usullari xususida ma'lumotlar berilgan. Asliyatda keltirilgan stilistik formulalarni ingliz va olmon tiliga o'girishda tarjimon bir marta o'girilgan shaklni xuddi asliyatdagidek boshqa joylarga ham aynan olib o'tmagan, balki ularni turli lingvistik vositalar yordamida tarjima qilgan. Chunki asliyatdagi bir xillik u mansub bo'lgan folkloriy muhit uchun tabiiy bo'lib, undagi takror holatlar asliyat o'quvchisiga deyarli bilinmaydi. Biroq o'zga til uslubi va badiiy shaklida bu holat g'alizlik tug'dirishi mumkin. Ya'ni tautologiya holatlarini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: Epos, tarjima, stilistik formula, klishe, badiiy tasvir, poetik obraz, asliyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N34>

Kirish. Ma'lumki, dostonlar har bir xalqning qadimiy urf-odatlarini, an'analari, maishiy hayotidagi eng kichik jabhalarni ham aks ettiruvchi muhim adabiy va ma'naviy asar hisoblanadi. “Alpomish” dunyo estetik tafakkuri tarixida kamdan-kam uchraydigan favqulodda va noyob badiiy hodisalardan biridir. Uning favqulodda va noyobligi shundaki, qadimiyatda yaratilgan bu ulkan epos baxshilar tomonidan asrlar davomida kuylanib, jonli epik an'analarda og'zaki ravishda bizgacha yetib keldi. Shuning uchun ham u bugungi kunda qadimiyatning

buyuk bir ehsoni, o'zi yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ommasi ruhining ob'ektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ko'plab variantlarda va xilma-xil ko'rinishlarda ajdodlardan avlodlarga yetib kelgan adabiy yodgorlik, xalq milliy tarixidagi qahramonlik voqealarining afsonalar qobig'iga o'ralgan o'ziga xos badiiy ifodasi, buyuk epos sifatida baholanadi. Hozirgi kunda butun dunyo, jumladan, o'zbek, ingliz va nemis xalqlari tillari o'rtasida hamkorlikdagi adabiy aloqalar yuksak cho'qqiga ko'tarilmoqda, chunonchi, yashayotgan asrimizda ko'plab o'zbek ertaklari, dostonlari, romanlari g'arb tillariga tarjima qilindi, qilinmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XX-asr oxirlarida o'zbek xalq dostonlariga olmon tarjimonlari va tadqiqotchilarining qiziqishlari yanada ortdi. Taniqli nemis turkolog olimi iqtidorli tarjimon professor Karl Rayxl 1985-yili Go'ro'g'li turkumiga kiruvchi "Ravshan" dostonini o'zbek tilidan nemis tiliga o'girdi [1]. 2001-yili "Alpomish" dostonining Saidmurod Panoh o'g'li variantini ham bevosita o'zbek tilidan olmon tiliga tarjima qildi [2]. Mazkur tadqiqotga nafaqat tarjima, balki olimning uzoq yillar davomida doston ustida olib borgan izlanishi sifatida ham baho berish mumkin.

XXI-asrga kelib esa "Alpomish" dostoni Q.Ma'murov tomonidan ingliz tiliga o'girildi [3]. O'zbek folklori, xususan, dostonlarini ingliz va nemis tillariga amalga oshirilgan tarjimalari yuzasidan tadqiqotlar olib borish bugungi kun tarjimashunoslari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Biz ham baholi qudrat ushbu ishga o'z hissamizni qo'shish maqsadida mazkur maqolada epik klishelar, xususan, stilistik formulalar tarjimasini yuzasidan fikr yuritmoqchimiz. Taniqli folklorshunos olim To'ra Mirzayev "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari" nomli risolasida "Alpomish" dostonida qo'llangan epik klishelar va ularning badiiy xususiyatlari yuzasidan qimmatli fikr va mulohazalar bildirgan.

Muhokama. T.Mirzayev "Alpomish" eposidagi stilistik formulalarni ikki guruhga bo'ladi: 1."Alpomish" dostonining ko'pchilik variantlarida uchrovchi stilistik formulalar. 2."Alpomish" dostonining bir varianti ichida uchrovchi stilistik formulalar.

Quyida dostonning ko'pchilik variantlarida uchraydigan stilistik formulalardan ba'zilarining tarjimasini ko'rib chiqamiz. Saidmurod Panoh o'g'lining "Alpomish" dostonida eng ko'p uchraydigan poetik klishelardan biri sifatida quyidagi klisheni ko'rsatish mumkin:

Xazon urib bog'ning guli so'lmasin.

Tarjimasini: *O möge doch die Rose, kommt der Herbst, im Garten nicht verwelken*

Bu stilistik formula dostonning o'nga yaqin joyida uchraydi hamda deyarli bir xilda takrorlanadi. Lekin ularning uslubi va badiiy tasviri kimning nutqida, qanday holatda kelishiga qarab o'zgarib turadi. Ushbu poetik klishelarda bog', gul, xazon poetik obraz sifatida talqin qilinadi. Masalan: Alpomishning onasi Kuntugalni Qultoy qiyofasidagi Alpomishga aytgan so'zi;

Xazon urib bog'ning guli so'lmasin,

Dunyoda hech kishi bunday bo'lmasin!

Tarjimasini: *O möge doch die Rose, kommt der Herbst, im Garten nicht verwelken!*

O möge doch auf Erden niemand je in solche Lage kommen!

Ayni kliche bakovulga xotini tomonidan qilingan murojaatda ham uchraydi:

Bir necha kun sen bakovul bo'lasan.

Xazon urgan bog'da gulday so'lasan.

Tarjimasini: *Einige Tage wirst du noch Koch sein*

Du wirst verwelken wie im Herbst im Garten eine Blume.

Ko'rinib turganidek, dostonda keltirilgan stilistik formulalarni olmon tiliga o'girishda tarjimon bir marta ag'darilgan shaklni xuddi asliyatdagidek boshqa joylarga ham aynan ko'chirib olib o'tmagan, balki ularni turli lisoniy vositalar bilan o'giran. Chunonchi, asliyatdagi bir xillik u mansub bo'lgan folkloriy muhit uchun tabiiy bo'lib, undagi takror holatlar asliyat o'quvchisiga deyarli bilinmaydi. Biroq o'zga til uslubi va badiiy shaklida bu holat g'alizlik tug'dirishi mumkin. Shunga ko'ra ham tarjimon yuqoridagidek yo'l tutishga majbur bo'lgan. Ko'p yillik tarjimonlik faoliyati jarayonida o'zbek tili va o'zbek xalqining turmush tarzini yaxshi o'rgangan K.Rayxl poetik klishelar tarjimasida xam o'ziga yo'l topib, har bir misrani tegishli kontekst mazmunidan kelib chiqib tarjima qiladi. Ba'zi misollarni keltiramiz:

Xazon urib bog'ning guli so'lmasin.

Sich die Knospen öffneten, kam schon der Herbst in meinen Garten.

Die Blätter fielen, es ist verwelkt mein aufgeblühter Garten.

O möge doch die Rose, kommt der Herbst, im Garten nicht verwelken!

Du wirst verwelken wie im Herbst im Garten eine Blume.

Ushbu stilistik formulalar nemis tilida shakl jihatdan asliyatdagidek bo'lmasada, lekin undagi mazmun va badiiylik asliyat mazmunini to'la aks ettira olgan. Masalan: *Du wirst verwelken wie im Herbst im Garten eine Blume.* Bu shaklda tarjimon xazon, xazonrezgilik kabi tushunchalarni kuz fasli kelishi bilan bog'liq ekanligiga ishora qilib, xuddi kuz kelgan bog'dagi (*wie im Herbst im Garten*) kabi tasvirlaydi. (Chunki nemislarda xazon, xazonrezgilik kabi tushunchani aynan ifodalaydigan so'z mavjud emas). Tarjimon qo'llagan usulda tasvir va ifodaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan metaforik obrazlar tarjimada o'z ramziy ma'nolarini saqlab qolgan va keyingi kelayotgan epik bayonga birikib ketishi ta'minlangan. Masalan; asliyatda xazon urib, xazon urgan, xazon urdi so'z birikmasi 4 ta shaklda bir xilda, faqat qo'shimchalari o'zgargan holda keladi. K.Rayxl nemis tilining leksik-semantik imkoniyatlaridan foydalangan holda, olmon o'quvchisiga tushunarli bo'lsin deb, *kam schon der Herbst* (kuz kelgandi), *die Blaetter fielen* (burglar to'kilgan), *kommt Herbst* (kuz kelib), *wie im Herbst im Garten* (huddi kuz faslidagi bog'da) kabi kitobxonga ta'sir eta oladigan va aniq tushuncha hosil qiladigan sinonimik so'z birikmalar yordamida ifodalaydi. Bir qarashda tarjima barbod bo'lganga o'hshaydi, lekin ushbu tarjimalar nemis o'quvchisiga yaqqolroq ko'rinishi va tushunarli bo'lishi uchun tarjimon shunday yo'l tutgan. Nemischa tarjimada asliyatga qaraganda shaklning kengligi va so'zlarning ko'p ko'llangani kuzatiladi, buning sababi, albatta tarjimonning badiiy erkinlikka amal qilgani va nemis tilining grammatik qonuniyatlariga ko'ra har bir gapda kesimning shartliligi, modal fe'llar hamda zamon yasashda ikki-uch qisimli fe'llarning ishlatilishidir. Shu o'rinda tarjimashunos olim G.Gachechiladze fikrini keltirib o'tamiz "Agar tarjima so'zma-so'z amalga oshirilgan bo'lsa, garchi u asliyat bilan bu jihatdantenglasha olsa ham, matniy jihatdan muvofiq kelmaydi"[7].

Tarjimon K.Rayxl dostonidagi epik shakllarni mahorat bilan olmon tiliga o'girishga erishgan desak mubolag'a bo'lmas. O'zbek "Alpomish"ini nemis o'quvchilariga shu darajada yetkazib bera olgan mutarjimning mehnatlari tahsinga loyiqdir. Baxshi epik voqea-hodisaning biror tomoniga tinglovchi e'tiborini qaratish, epik bayon mazmunini mubolag'ali qilib tasvirlash uchun ma'lum bir unsurlarni ataylab sanab ko'rsatish maqsadida tovush, so'z, so'z birikmalariga, ibora yoki gaplarga alohida urg'u bergan, natijada takror ususlining go'zal namunalari yaratib, ijod qilgan. "Alpomish" dostoni asliyatida qo'llangan takrorlar nafaqat

tashqi ko‘rinish yoki epik qahramonlar faoliyatiga daxldor fantastik tavirlarga ko‘tarinkilik bag‘ishlash uchun qo‘llangan, balki so‘z san‘atkori ularning har biriga muhim ekspressiv-emotsional va estetik vazifa yuklagan. Dostonda mavjud takror ifoda usuli matnni shakllantiruvchi, uning mazmuniy va intonatsion butunligini ta‘minlovchi vosita sifatida alohida badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Ya‘ni, matnning yaxlit holda saqlanishi, ma‘no ta‘sirchanligi, qofiyaning izchilligi va mazmun ketma-ketligini ta‘minlashda takror mas‘ul ifoda usuli sifatida namoyon bo‘lgan. Bundan tashqari doston kuylovchisi navbatdagi misra yoki so‘zni eslash, vaqtdan yutish va noquklay vaziyatda qolmaslik uchun ham takrordan unumli foydalangan.

Ma‘lumki, dostonga xos epik uslubning qanday holatda tasvirlanishi alohida e‘tiborga molik. Chunonchi, bunday uslub asnosida xalq qahramonlari, ularning mardligi haqidagi og‘zaki bayon va doston ijrochilarining o‘ziga xos ijodiy-g‘oyaviy xususiyatlari, badiiy-tasviriy bo‘yoqlar, leksik-frazeologik vositalar, badiiy shaklga aloqador boshqa komponentlar, jumladan, badiiy tasvir vositalari, xalq og‘zaki ijodiga xos saj‘ so‘z san‘ati, doston ichida va dostonlararo ko‘chib yuruvchi epik klishelar, sifatlashlar mujassam.

Natijalar. Epik klishelar xalq dostonlaridagi unumdor til vositalari bo‘lib, ular matnga musiqiylik, vaqtni tejash, navbatdagi voqealar rivojini eslash uchun qulay fursat yaratish kabi vazifalarni bajaradi.

Asliyatda:

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema.

Tarjimada:

Don’t say the present time is time,
You’re alive, don’t say your property is little.

Asliyatda:

Kokillarim eshilgandir tol-tol,
Har toliga bersa yetmas dunyo mol. 257-bet

Tarjimada:

My hair is plaited like a willow, tidy,
Wealth is not enough for each fiber. 191-bet

Asliyatda:

Xazon bo‘lsa bog‘da gullar so‘lgandi,
So‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ngandi. 79-bet.

Tarjimada:

In your garden your flower bud arrived,
In the garden your nightingale had arrived. 111-bet.

Xulosa. “Alpomish” dostoni bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qadim dostonchilik an‘analari asosida xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo‘lsada, aslida “Alpomish” dostonining eng qadim qatlamlari miloddan avvalgi yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o‘zida aks ettirgan. Pirovardida bunday noyob asardan butun dunyo xalqlarini ham bahramand qilish tarjimonlar oldida turgan eng muhim vazifadir. Uning tarjimadagi muammolari esa o‘zining tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Reichl K. Rawšan. Ein usbekisches muendliches Epos. – Wiesbaden: Verlag Otto Harrassovitz 1985.
2. Reichl K. Alpomisch. Das usbekische Heldenepos. – Wiesbaden: Verlag Otto Harrassovitz. 2001
3. “Alpomish”, translated by Kosimboy Mamurov. – Tashkent, Zeboprint. 2023. – 390 p.
4. Мирзаев Т. “Алпомиш” достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1958. – 265 с.
5. Рейхл Карл. Тюркский эпос. – М.: Вост. литер., 2008. – 465 с.
6. Мирзаев Т. “Алпомиш” достонининг ўзбек вариантлари
7. Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. –Москва: Сов. Писатель. 1980. – 355 с.
8. Мақолада келтирилган мисоллар К.Райхл томонидан амалга оширилган таржималар ва ушбу китобда берилган ўзбекча вариантдан олинган.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).